

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**HAQBERDIYEVA SHOIRA TURSUNALIYEVNA**

**KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUV ASOSIDA BIOLOGIYANI  
O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(7-8 SINFLAR MISOLIDA)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Guliston – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Haqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna**

Kompetensiyaviy yondoshuv asosida biologiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirish(7-8 sinflar misolida)..... 3

**Ҳақбердиева Шоира Турсуналиевна**

Совершенствование методики преподавания биологии на основе компетентностного подхода (на примере 7-8 классов)..... 21

**Khakberdiyeva Shoira Tursunaliyevna**

Improving methods of teaching biology based on the competence-based approach (based on the example of 7-8 classes)..... 41

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**HAQBERDIYEVA SHOIRA TURSUNALIYEVNA**

**KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUV ASOSIDA BIOLOGIYANI  
O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(7-8 SINFLAR MISOLIDA)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Guliston – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7178 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.guldu.uz](http://www.guldu.uz)) ba "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Elmuratova Dilrabo Muxammatovna**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Ergasheva Malohat Tursunovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor  
**Toshtemirova Muazzamxon Akmaljonovna**  
pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Buxoro davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.91.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengashning 2024 yil « 13 » 12 kuni soat 11<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25, faks: (+99867) 225-39-25, e-mail: [glinfo@edu.uz](mailto:glinfo@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 2 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 29 » 11 kuni tarqatildi.  
(2024 yil « 29 » 11 da 2 -sonli reestr bayonnomasi)

  
**A.P.Pazilov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**F.P.Gaibnazarova**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), dotsent

**E.B.Shakarboyev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim muassasalarida biologiya fanini o'qitish sifatini, ta'lim jarayoniga innovatsion hamda kreativ ta'lim texnologiyalarni tadbqiq etish asosida o'quvchilarning biologiya fanidan ijodiy qobiliyatlarini oshirish texnologiyalari amaliyotga tadbqiq etilmoqda. Buyuk Britaniya, Kanada, AQSh, Janubiy Koreya, Rossiyada o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, pedagogik jarayonlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, "O'qituvchi-o'quvchi" ta'lim vositasi o'quv muhitini shakllantirish bo'yicha yirik loyihalarni amaliyotga tadbqiq etishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda<sup>1</sup>.

Jahon ta'limi va ilmiy tadqiqot muassasalarida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarining metodologik va uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda 7-8 sinflarda kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quv va ilmiy laboratoriyalarni yaratish, uch o'lchamli grafikda biologik tajriba o'tkazish virtual laboratoriya jamlanmasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida etibor berilmoqda. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiyani o'qitish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim tizimida o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, o'qitish intensivligi va samaradorligini oshirish, ularni jahon andozalariga moslashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbqiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish"<sup>2</sup> ustivor vazifalar etib belgilandi. Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari yanada kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi 4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2018-yil 8-dekabrda 997-son «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi

<sup>1</sup> <https://e-library.namdu.uz/>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5712-сонли Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.

va 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish to‘g‘risida”gi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlari barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy ahloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan, hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ta’lim jarayonining kompetensiyaviy yondoshuv asosida tashkil etish va pedagogik-psixologik, metodik jixatlari bo‘yicha ma’lumotlar A.Abduqodirov, N.Azizxodjayeva, Y.Asadov, U.Begimqulov, N.Muslimov, N.Turdiyev, M.T.Umaralieva, J.E.Usarov, R.Fayzullayevlar; biologiya o‘qituvchilarini kasbiy hamda metodik tayyorgarligini takomillashtirish I.Azimov, O.Mavlonov, J.Tolipova, G.S.Ergasheva, M.M.Vahobov, U.E.Raxmatov, M.A.Kuychiyevalar tomonidan; ta’lim muassasalarida pedagogik va axborot texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga joriy etish M.Allamuratov, K.Zokirov, S.M.Nadjimova, M.Tojiyev; o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini orttirish va o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish N.A.Muslimov, O‘.Q.Tolipov, M.B.Urazova, D.M.Elmuratovalar tomonidan amalga oshirilgan va ilmiy ishlari tatbiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida biologiya o‘qitish metodikasini takomillashtirish, axborot texnologiyalarini qo‘llashga mo‘ljallangan biologiyaga oid o‘quv materiallarining pedagogik-psixologik samaradorligi S.V.Zenkina, A.V.Xutorskoy, A.N.Leontyev, I.A.Zimnya, N.V.Babichev, E.V.Titovlar tomonidan tadqiq etilgan; ta’lim tizimini axborotlashtirish va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muammolari N.B.Cherkasskaya, I.V.Chelishev, R.M.Xanafayeva, I.V.Nikishina, N.F.Talizina, O.G.Petrova, V.A.Borodin, L.V.Pavlovalar o‘rgangan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan Winterton Jonathan, L.Henderson, S.Hennessy, L.R.Newtonlar kompetensiyaviy yondashuv yuzasidan dastlabki qarashlar va bugungi kunda ta’lim sohasidagi ahamiyati yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan. Biologiya fanining ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish; multimedia, intellektual o‘yin texnologiyalaridan foydalanishga oid samarali

tadqiqotlar J.Delor, L.Masterman, R.P.Mul'trud, S.Goodman, F.A.Šorgolar tomonidan amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universitetida PZ - 20170923121 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan. (2018-2020 yy.)

**Tadqiqotning maqsadi** biologiyadan 7-8 sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari**

umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiyani o'qitish metodikasini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, tahlil qilish;

biologiyadan darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlarda kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi didaktik modelni ishlab chiqish;

integrativ yondashuv asosida biologiyadan o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish asosida ulardagi tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiyani o'qitish samaradorligini tajriba-sinov ishlari samarali tashkil etish asosida takomillashtirish.

**Tadqiqot ob'yekti** 7-8 sinflarda kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilangan bo'lib, Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 32-maktab, Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi 24-maktab va Surxondaryo viloyatining Termiz shahridagi 6-; -17-umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 443 nafar o'quvchilar ishtirok etdi.

**Tadqiqot predmetini** 7-8 sinflarda kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalarini tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari** tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, didaktik materiallar, DTS, o'quv reja va dasturlari, tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, anketa, umumlashtirish, savol-javob, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik statistika metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiyani o'qitishning metodik tizimi ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik hamda o'quvchining, nazariy-amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash faoliyati uzviylikini ta'minlovchi o'quvchilarda biologiya faniga oid ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik tamoyillarini ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida 7-8 sinflarda biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli maqsad, tashkiliy-metodologik

komponentlar, mazmun, didaktik jarayon, baholash mezonini hamda natijalarni aniqlash asosida ishlab chiqilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida 7-8 sinflarda biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi real va virtual laboratoriya mashg'ulotlarining optimal uyg'unligini ta'minlash hamda "Keys-stadi", "Klaster", "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash" texnologiyalari integratsiyasini amalga oshirish asosida takomillashtirildi.

Biologiyani kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minoti umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya o'quv fani dasturlari hamda bo'lajak biologiya o'qituvchilari uchun Zoologiya (umurtqalilar zoologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari) o'quv qo'llanmasi mazmuni integratsiyasi asosida takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

Kompetensiyaviy yondashuv asosida umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-8 sinflarda biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish kompetentli o'qitishda mustaqil o'quv faolligi, innovatsion qiziqishlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy - metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izoxlanadi hamda tadqiqotga mos holda, ilmiy maqolalar va loyiha yaratilib amaliyotga tadbiq etilgan;

"Kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish" mobil ilovasi (DGU 2022 1073) va "Teaching Biology Based On A Competency Approach" dasturi (DGU 2021 2105) hamda "Zoologiya (umurtqalilar zoologiyasidan laboratoriya mashg'uloti" nomli o'quv qo'llanma (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining 2024-yil, 7-maydagi 149-sonli buyrug'i) yaratilgan;

O'quvchilar kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari (ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish, faoliyatli-shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini joriy etish tamoyillari) takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, asosiy metodik tamoyillarga asoslanilganligi, unda qo'llanilgan usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligi matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalarining ishonchliligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishning metodik tizimi, o'qituvchilarning pedagogik faoliyati, o'quvchining ta'lim jarayonidagi nazariy va amaliy ko'nikma va malakalarini egallash, kompetensiyalarni innovatsion ta'lim muhitida tajriba faoliyati variativligini soddalashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati biologiyadan nazariy bilimlar orqali ularning kasbiy faoliyatiga yondashuv asosida tizimli yo‘naltirilganligi biologiyani o‘qitish orqali o‘quv jarayonida axborot-kommunikasiya va innovatsion texnologiyalar asosida umumiy o‘rta ta‘lim o‘quvchilarini tayyorgarligini takomillashtirishga hizmat qiladigan axborotlarning qabul qilinishi bilan izohlanadi. Dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kompetensiyaviy, o‘quv faoliyatini tashkil etish asosida xulosalar chiqarish, olingan nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari aniqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-8 sinflarda kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirishga oid olingan ilmiy natijalar asosida:

umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida biologiyani o‘qitishning metodik tizimi, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati, o‘quvchining ta‘lim jarayonidagi pedagogik-psixologik kompetensiyalarni innovatsion ta‘lim muhitida tajriba faoliyati variativligini soddalashtirib borish asosida aniqlangan ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti PZ-2017927124 raqamli “Ta‘lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi Vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2022-yil 10-noyabrdagi 02-07-3998/04-son dalolatnomasi). Natijada kompetensiyaviy yondashuv asosida 7-8 sinflarda biologiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirishning nazariy, pedagogik va psixologik imkoniyatlarini tahlil etish imkoni oshirilgan;

o‘quvchilarning biologiyadan ta‘lim sifatini oshirish modelini fanga ilmiy yondashuv asoslariga tayangan holda, o‘qitish jarayonini tashkil etishning metodologik, faoliyatli-texnologik, shaxsiy-natijaviy darajalarining qayta aloqaga kirishuvining ta‘lim jarayonlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti YOA-6-1 raqamli “Botanika” o‘quv qo‘llanmasini yaratish” nomli amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi Vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2022-yil 10-noyabrdagi 02-07-3998/04-son dalolatnomasi). Natijada biologiyani o‘qitish metodikasi modelini dars, laboratoriya mashg‘ulotlarga kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

biologiyani o‘qitish metodikasi modeli elektron ensiklopediya, video materiallar hamda ilm fan o‘rtasida hamkorlik va integratsiya moduli, texnologiyalariga ustivorlik berish asosida takomillashtirish yuzasidan berilgan tavsiyalar “Zoologiya (umurtqalilar zoologiyasidan laboratoriya mashg‘uloti” nomli o‘quv qo‘llanma doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vazirligining 2024-yil, 7-maydagi 149-sonli buyrug‘i). Natijada biologiya faniga oid mavzulari bo‘yicha o‘rgatish metodikasini takomillashtirish imkoni oshirilgan.

umumiy o'рта ta'lim maktablarida biologiyani o'qitish metodikasi samaradorligi mavzular klasterini tuzish, muammoni anglash, intellektual tafakkur hamda vizual laboratoriya mashhulotlarini bajarish ko'nikmalarni uyg'un shakllantirish asosida takomillashtirish yuzasidan berilgan tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2022-yil 10-noyabrdagi 02-07-3998/04-son dalolatnomasi). Natijada biologiya faniga oid mavzulari bo'yicha o'rgatish metodikasini takomillashtirish imkoni oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ilmiy-metodik ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiya lari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 2 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallar. Shuningdek, ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotga O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, nashr ettirilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi o'z aksini topgan.

Dissertatsiya ning **"7-8 sinflarda kompetensiyaviy yondoshuv asosida biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida 7-8 sinflarda kompetensiyaviy yondoshuv asosida biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida, kompetensiyaviy yondoshuv asosida biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik va psixologik asoslari, kompetensiyaviy yondoshuv asosida 7-8 sinflarda biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirishda o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati fanlardan tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida,

shuningdek, kelgusida kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish sanaladi.


O‘quvchilar kelgusida hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning echimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Kompetensiya – o‘quvchining egallagan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni echishda foydalanib, amaliyotda qo‘lay olishidir.

Kompetentlik – o‘quvchining shaxsiy sifatlari to‘plami (bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, layoqatlar) bo‘lib, belgilangan ijtimoiy va shaxsiy sohadagi faoliyatida orttirgan tajribasi bilan belgilanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz uzluksiz ta‘lim tizimida ham kompetensiyaviy yondoshuv masalasiga doir o‘ziga xos qarashlar shakllandi. Jumladan, Y.Asadov, N.Muslimov, N.Turdiyev, M.T.Umaralieva, J.E.Usarov, R.Fayzullayev, M.M.Vahobovlar tadqiqotlarida masalaning pedagogik-psixologik va metodik jixatlari ochib berilganini kuzatish mumkin.

Ta‘lim mazmuni va o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan kompetensiyalar ta‘lim mazmuni umumiy o‘rta ta‘limning fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlariga kiritilgan mavzulardan iborat. O‘quv materialini ta‘limning barcha turlarida uzviylik, uzluksizlik va davriylikni ta‘minlaydi (1-rasm).




### **1-rasm. Biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati**

Kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha pedagog, psixologlarning izlanishlariga tayangan holda ta‘lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida 7-8 sinflarda biologiya fani o‘qitish metodikasini takomillashtirishning psixologik-pedagogik asoslari o‘qitishning ilmiyligini ta‘minlash, o‘quvchilarning bilishga oid faoliyatini sezilarli ravishda kuchaytirish, ularning bilim sifatini oshirishga yordam beruvchi va fikrlashning zamonaviy usulini samarali rivojlantirishga hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga imkon beruvchi didaktik tamoyil sifatida namoyon bo‘lishi haqidagi nazariyani takomillashtirishdan iboratdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega o'quvchilar uchun ta'limning yagona qulay, optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o'zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim, noan'anaviy ta'lim usullarini qo'llash muhim ahamiyatga egadir.

Biologiya fanini o'qitish jarayonida an'anaviy va kompetensiyaviy yondashuvning qiyosiy tahlili bilan tanishamiz (2-rasm).



**2-rasm. Biologiya fanini o'qitish jarayonida an'anaviy va kompetensiyaviy yondashuvning qiyosiy tahlili**

O'quvchilarning mustaqil hayotdagi turli faoliyat va yo'nalishlardagi muammolarni o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari, shaxsiy xulosalariga asoslanib hal etish, zaruriy hollarda talab etiladigan faoliyatni to'la bajarish qobiliyatlarini rivojlantirish asoslandi.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini rivojlantirish bosqichlarini aniqlashtirib, strukturasi, funksiyasini belgilab olib, so'ngra tayanch va predmet

kompetensiyalarini loyihalash texnologiyasini tuzdik. Undan o‘qitish metodlarini tanlash tamoyillari kelib chiqib, kompetensiyaviy yondoshuv asosida 7-8 sinflarda biologiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirishni quyidagicha amalga oshirildi (1-jadval).

**1-jadval.**


**Kompetensiyaviy yondoshuv asosida 7-8 sinflarda biologiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirish**

T/r	Mazmuni	Amalga oshiriladigan ishlar
1	7-8 sinflarda biologiyani o‘qitishda fanga oid kopetensiyalarni takomillashtirish	7-8 sinflarda biologiyani o‘qitishida pedagogik kuzatishlarni olib borish, o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini tahlil qilish; o‘qitish vositalari, metod va shakllarini ilmiy o‘rganish o‘qitish jarayonini rejalashtirish va metodlarini qo‘llashning dastlabki tajribalarini shakllantirish; fanga oid materiallarni tizimlashtirish va o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi; o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulotlar davrida tanish va notanish vaziyatlarda bilimlarini nomoyish etishi va amaliyotda qo‘llashi.
2	Amaliy, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish	o‘quvchilar tomonidan bilimlarni umumlashtira olishlari (umumiy savollar, turli tushunchalarni shakllantirish, xususiy savollar); o‘quvchilarning oddiy pedagogik tadqiqot o‘tkazishda tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirish; undan foydalanish, amaliy ishlashga o‘rgatish.
3	Xulosa, fanga oid qonuniyatlarni tushunish	o‘qitishning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy texnologiyalarini o‘rganish va ularni qo‘llash tamoyillarini ishlab chiqish; eksperimentlar o‘tkazish malakasi va undan amaliyotda foydalanish va masalalar echishning turli usullaridan foydalanishi; startap va innovatsion loyihalar yaratishi va undan foydalanishi

Kompetensiyali yondashuvda o‘qitish maqsadlari o‘quvchilar tomonidan o‘z-o‘zini anglash, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quv maqsadlariga erishish yo‘llarini tushinish, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustivor rejalashtirildi va amalga oshirildi.

Dissertatsiya ning **“Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-8 sinflarda kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirishning amaliy texnologik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida kompetensiyaviy yondashuv asosida 7-8 sinflarda biologiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli, biologiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirishning metodik jihatlari, 7-8 sinflarda biologiya fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosida laboratoriya mashg‘ulotlarning tashkil etish metodikasi yoritilgan.

7-8 sinflarda biologiya fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya o‘qitish metodikasini takomillashtirishda hozirgi zamon talablarini aks ettiradigan modelni tuzish uchun modellashtirishga nisbatan umumiy yondashuvlarni, uning tuzilishidagi asosiy tarkibiy qismlarni guruhlarga birlashtirish tamoyillarini nazariy jihatdan asoslash zarur.



**3-rasm. 7-8 sinflarda biologiya fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli**

7-8 sinflarda biologiya fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun ta'lim shakillarining barcha omillarini hisobga olish, biologiyani o'rganishga asoslangan materiallaridan foydalangan holda 7-8 sinflarda biologiya fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan. Modellashtirishga umumiy yondashuv va uning strukturasi asosiy tarkibiy qismlarini guruhlarga bo'lish tamoyili, kasbiy malakaga qo'yiladigan joriy talablarni aks ettiruvchi 7-8 sinflarda biologiya fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli yaratish uchun nazariy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi bog'liq.

Dars jarayonida video materiallardan foydalanish 7-8 sinflarda biologiya fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirishga imkon beradi va tabiiy fanlarni o'rganish jarayonida ayrim kamchiliklarni bartaraf etish, atrof-muhitning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi va aniq kasbiy yo'nalishga ega bo'lishi imkonini beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirishda umumiy tamoyillari orasidan eng asosiyarini, ya'ni butun kasbiy tayyorgarlik jarayoni mazmuni va uni tashkil etishning asosini tasniflaydigan o'ziga xos xususiyatlari va kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta'sirini aks ettiruvchi quyidagi tamoyillarni ajratib olish lozim (4-rasm).



**4-rasm. Kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirishda umumiy tamoyillari**

**Ilmiylik tamoyili** – o'quvchilarga o'rganish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi.

**Tizimlilik tamoyili** – yangi bilim, ko'nikmalarni ilgari o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalar bilan bog'lash shu orqali o'quvchilarning tushuncha va tasavvurlari doirasini kengaytirish hamda chuqurlashtirish, materialni qismlarga ajratgan holda o'rganish, ularning asosiy jihatlarini, umumiy g'oyasini alohida ifodalash bilan o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

**Integrativlik tamoyili**- turli fanlardan olingan bilimlar, ko'nikma, malaka va tajribani hisobga olish, fanlararo bog'lanishlar va aloqalarning mavjudligiga yo'naltirilgan.

**Onglilik tamoyili** - onglilik o'quvchilarni yangi materialini idrok qilishda ta'riflar, teoremlar, adabiyotdan she'r yodlash va hokazolarning ifodalanishinigina emas, balki ularning hayotiy xodisalar, jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan mavzuni ham tushunishlarini talab etadi.

**Faollik tamoyili** - ta'lim ikki tomonlilik xususiyatiga ega. Ta'lim jarayoni pedagog yo'naltiruvchi bo'lib maydonga chiqadi va o'quvchilar o'rganish jarayonini o'z boshlaridan kechiradilar.

**Nazariya va amaliyotning birligi tamoyili** - ta'limning asosiy maqsadi yoshlarni mustaqillik hayotga tayyorlash ya'ni turli xil hayotiy sharoitlarda o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini amalda qo'llay olish darajasiga etkazishdir.

**Ta'limning ko'rgazmaliligi** - mavhum tushunchalarni egallashda bilish uchun asos hisoblanadi.

**Uyg'unlilik tamoyili** –kasbiy tayyorgarlik jarayoni mazmuni va uni tashkil etishning asosini tasniflaydigan o'ziga xos xususiyatlari va kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta'sirini aks etiruvchi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi.

**Tasavvur qilish tamoyili** – ushbu tamoyil o'quvchilarda bilim olish jarayonida o'rganishi lozim bo'lgan yangi bilimlarni tasavvur qilish orqali ongida gavdalantiradilar.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llaniladigan texnologiyalarni tasniflash borasida bir qancha qarashlar mavjud. Mualliflar O.Mavlonov, J.Tolipova, G.S.Ergasheva, I.Azimov, M.M. Vahobov, U.E.Raxmatovlar barcha ta'lim texnologiyalarini o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi faollik darajasiga qarab shartli ravishda an'anaviy mumtoz va zamonaviy turlarga bo'ladi. An'anaviy texnologiyalar o'z navbatida reproduktiv va faol, zamonaviy texnologiyalar guruhini interaktiv guruhlarga bo'ladi.

Hozirgi kunda Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida laboratoriya ishlari o'quvchiga nazariy bilimlarni qo'llash mexanizmlarini chuqur va ko'rgazmali o'rganish imkonini beradi. Laboratoriya mashg'ulotlari o'quvchida tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashuvni ta'minlaydi va eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiyadan laboratoriya mashg'uloti texnologiyalaridan foydalanishni ma'lum bir izchillikda, metodik talablar asosida amalga oshiriladi.

An'anaviy tarzda tashkil etiladigan laboratoriya ishlarining o'rniga kompetensiyaviy, takomillashtirilgan holda laboratoriya o'tkazilish texnologiyasi qo'llanildi. 7-sinflarda shu metod asosida laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazildi va natijada o'quvchilar bu laboratoriya darsini qiziqqan holda qabul qildilar hamda yuqori samaradorlikka erishdilar.

Modul o'qitish usuli asosida "**Pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va uning natijalari**" deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov maqsad va vazifalari, pedagogik-tajriba sinov natijalari va ularning matematik-statistik metodlar yordamida tahlili bayon etilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining

maqsadi umumta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning ijodkorligini oshirish, omillarini shakllantirish imkonini beruvchi pedagogik shart-sharoitlardan samarali foydalanish metodikasini aniqlashdan iborat.

Tajriba-sinov ishlari 2019-2022 yillar davomida uch bosqichdan iborat etib bosqichma bosqich amalga oshirildi. Bunda:

Birinchi bosqich - izlanuvchan bosqich hisoblanib (2019-2020 yillar davomida) tajriba sinov tashkil etildi. Tajriba sinovni tashkil etish bosqichi bo'lib, bunda dastlab tajriba-sinovlar o'tkazilishi zarur bo'lgan maktablar aniqlandi. Tajriba sinovda ishtirok etadigan o'quvchilarning biologiyadan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyaviy yondashuv asosida, anketa, so'rovnoma, test topshiriqlari, yozma ish, og'zaki savol-javoblar yordamida o'rganib chiqildi.

Tajriba sinov natijalarining aniq bo'lishini taminlash maqsadida biologik bilim darajalari teng bo'lgan maktablardagi sinflar va o'quvchilar tanlab olindi.

Tajriba sinov o'tkazish uchun Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 32-maktab, Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi 24-maktab va Surxondaryo viloyatining Termiz shahridagi 6-17-umumiy o'rta ta'lim maktablari tanlab olindi. Tajriba-sinov ishlarida 7-8 sinf o'quvchilari qatnashdi (2-jadval).

**2-jadval.**


**Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan o'quvchilarning xududlar va sinflar bo'yicha taqsimoti**

Xududlar	Tajriba guruxlar		Nazorat guruxi		Jami	
	7-sinf	8-sinf	7-sinf	8-sinf	Tajriba	Nazorat
<b>Surxandaryo</b>	55	57	53	54	112	107
<b>Namangan</b>	25	22	22	23	47	45
<b>Toshkent</b>	34	32	33	33	66	66
<b>Umumiy</b>	114	111	108	110	225	218


Ikkinchi shakllantiruvchi bosqich (2020-2021y.y.). O'quvchilarning biologiya fanidagi tushunchalar, masalalar va echish usullari, nazariy bilimlari biologiya fanining bir hujayralilar, ko'p hujayralilar, umurtqasiz va umurtqalilar hayvonlar, modda va energiya almashinuvi, ratsional ovqatlanish, ovqat hazm qilish sistemasi boblardagi mavzular orqali sinab ko'rildi. Bunda kompetensiyaviy yondashuv asosida noan'anaviy metodlar hamda dars va to'garak mashg'ulotlari davomida turli didaktik o'yinlar, boshqotirmalar, lingvistik o'yinlardan foydalanildi, xulosalar chiqarilib umumlashtirildi.

Uchinchi tasdiqlovchi bosqichda (2021-2022 y.y.). Bu bosqichdagi tajriba-sinov ishlarining maqsadi, o'quvchilarning kompetensiyaviy yondashuv asosida foydalangan holda mustaqil fikrlash, ko'nikma, malakalarni va kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishning, taklif etilayotgan metodning samaradorligini aniqlashdan iborat bo'ldi. Natijada o'rganilgan pedagogik tajriba sinov uchun olingan natijalar hisoblanib, ular asosida yetarlicha xulosalar chiqarildi.


Nazorat va tajriba guruh a'zolarining biologiya fani bo'yicha topshiriqlar asosida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish samarasi, har bir bob oxiridagi mashg'ulotlarda bilim darajasining o'zgarishini aniqlash yo'li bilan tasdiqlandi. Pedagogik tajribadan olingan natijalarning ishonchligini aniqlash va taklif qilingan metodikaning samarali ekanligini ko'rsatish bo'yicha topshiriqlar asosida tayanch Kompetensiyalarni rivojlantirish samarasi, har bir bosqich oxiridagi mashg'ulotlarda bilim darajasining o'zgarishini aniqlash yo'li bilan tasdiqlandi.




**5-rasm. Nazorat guruhining tajriba boshidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari**



**6-rasm. Tajriba guruhining tajriba yakunidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari**



**7-rasm. Nazorat guruhining tajriba yakunidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari**



**8-rasm. Tajriba yakunidagi tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari**



**9-rasm. Tajriba yakunidagi samaradorlik ko'rsatkichlari**

Natijalar asosida o'zlashtirish samaradorlik 1.15 barobar 15% ni tashkil qiladi.

Tajriba-sinov natijalari o'quvchilarda biologiya fani asosida tayanch va fanga oid Kompetensiyalarni rivojlantirish biologiyadan o'quv faoliyatlari mazmundorligini miqdoriy baholashdan manfaatdor ekanligini ko'rsatdi. Bu esa, o'z navbatida, tadqiqotlarimizning samaradorligini va tavsiyalarimizning pedagogik nuqtai nazardan ishonchliligini tasdiqlaydi.

## XULOSALAR

“Kompetensiyaviy yondoshuv asosida biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish (7-8 sinflar misolida)” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishning metodik tizimi, o'qituvchilarning pedagogik faoliyati, o'quvchining ta'lim jarayonidagi nafaqat nazariy va amaliy ko'nikma va malakalarini egallash, kompetensiyalarni innovasion ta'lim muhitida tajriba faoliyati variativligini soddalashtirib borish asosida aniqlashtirilgan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida umumiy o'rta ta'lim

maktablarida o'quvchilarning mustaqil ijodiy-ilmiy salohiyatini takomillashtirish, innovasion salohiyatni tarkib toptirish dolzarb ilmiy-amaliy zaruriyat ekanligi isbotlandi.

2. O'quvchilarning biologiyadan ta'lim sifatini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan didaktik modeli biologiyaga ilmiy yondashuv asoslariga tayangan holda, biologiyani o'qitish jarayonini tashkil etishning metodologik, faoliyatli-texnologik, shaxsiy-natijaviy darajalarining qayta aloqaga kirishuvining ta'lim jarayonlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan.

3. Biologiyaga oid tayanch Kompetensiyalarni shakllantirishda "Keys-stadi", "Klaster", "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash" texnologiyalarini nazariy va laboratoriya mashg'ulotlarda ijodiy hamkorlik integratsiyasi orqali takomillashtirish asosida o'quvchilarni kelajakda kompetentli shaxs qilib tarbiyalash, jamiyat hayotida, ishlab chiqarish va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlangan.

4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondoshuvning o'z-o'zini nazorat qilish, faollashtirish, biologik savodxonlikni takomillashtirishdan samarali foydalanishga e'tiborni qaratish lozimligi isbotlangan.

5. O'quvchining o'quv faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishni kuchaytirish biologiya fanini o'qitish sifati va samaradorligini oshirish yo'llaridan biri ekanligi nazariy va metodik jihatdan asoslangan.

6. Tajriba-sinovda umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish jarayonlarida kompetensiyaviy yondoshuv asosida o'quvchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish mezon va ko'rsatgichlar aniqlashtirildi, metodikasi ishlab chiqildi va o'quvchilarning bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalari shakllanganligi tasdiqlangan.

7. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ushbu tadqiqot ishi yuzasidan ishlab chiqilgan metodlar va tavsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish samaradorligi 1.15 barobar 15 % ni tashkil etilgan.

Mazkur xulosalar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rganilayotgan ilmiy masalalarini anglash amaliyotga tadbiq etishini jahon tajribalarini umumlashtirish va o'qitilayotgan fanlar tizimini o'rganib, biologiya faniga oid va tayanch kompetensiyalarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish;

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda biologik masalalar echish, laboratoriya ishlarini bajarish metodikalarini takomillashtirish haqida tavsiyalar ishlab chiqish;

3. O'quvchilarning olgan bilimlarini maqsadga muvofiq holda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning ahamiyatidan kelib chiqib joriy qilish maqsadga muvofiq.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ PhD.03/30.12.2019.В.91.01 ПО ПРИ ГУЛИСТАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ХАКБЕРДИЕВА ШОИРА ТУРСУНАЛИЕВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ  
БИОЛОГИИ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА  
(НА ПРИМЕРЕ 7-8 КЛАССА)**

**13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (биология)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Гулистан – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.1.PhD/Ped7178

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу ([www.guldu.uz](http://www.guldu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** Эльмуратова Дилрабо Мухамматовна  
доктор философии педагогических наук (PhD),  
доцент

**Официальные оппоненты:** Эргашева Малохат Турсуновна  
доктор педагогических наук, профессор  
Тоштемирова Муаззамхон Акмалжоновна  
доктор философии педагогических наук, доцент

**Ведущая организация:** Бухарский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится «13» 12 2024 года в 11<sup>00</sup> часов на заседании научного совета PhD.03/30.12.2019.B.91.01 при Гулистанском государственном университете (адрес: 120100, Сырдарьинская область, город Гулистан, 4-микрорайон. Тел.: (+99867) 225-39-25, факс: (+99867) 225-39-25, e-mail: [glinfo@edu.uz](mailto:glinfo@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Гулистанского государственного университета (зарегистрирован за номером 2). (Адрес: 120100, Сырдарьинская область, город Гулистан, 4-микрорайон. Тел.: (+99867) 225-39-25, факс: (+99867) 225-39-25).

Автореферат диссертации разослан «29» 11 2024 г.  
(Реестр протокола рассылки за № 2 от «29» 11 2024 г.)



**А.П.Пазиллов**  
Председатель научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.б.н., профессор

**Ф.П.Гаибназарова**  
Исполнительный секретарь научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.ф.п.н. (PhD), доцент

**Э.Б.Шакарбоев**  
Председатель научного семинара  
при научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.б.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировых образовательных учреждениях на основе применения Инновационных и креативных образовательных технологий в образовательном процессе качества преподавания биологии внедряются в практику технологии повышения творческих способностей студентов по биологии. В Великобритании, Канаде, США, Южной Корее, России проводятся системные работы, направленные на реализацию масштабных проектов по развитию педагогического мастерства учителей, использованию инновационных технологий в образовательных процессах, совершенствованию педагогических процессов на основе компетентностного подхода, формирование образовательной среды образовательного инструмента «Учитель-ученик»<sup>3</sup>.

В мировых образовательных и научно-исследовательских учреждениях проводятся научные исследования по совершенствованию деятельности преподавателей и студентов на основе компетентностного подхода, развитию взаимного сотрудничества преподавателей и студентов с использованием современных технологий, совершенствованию методических и методических основ образовательного процесса. Вместе с этим на основе компетентностного подхода в 7-8 классах особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на совершенствование методики преподавания биологии, создание учебных и научных лабораторий, проведение биологических экспериментов в трехмерной графике и совершенствование виртуального лабораторного комплекса. На сегодняшний день преподавание биологии на основе компетентностного подхода в средней школе приобретает актуальное значение.

В Республике последние годы создаются нормативные основы совершенствования образовательно-воспитательной системы, воспитания компетентного поколения, внедрения Инновационных технологий и компетентностного подхода в образовательный процесс в системе образования. «Совершенствование методики преподавания, постепенное внедрение принципов индивидуализации образовательно-воспитательный процесс, внедрение современных информационно-коммуникационных технологий и инновационных проектов в сферу народного образования»<sup>4</sup> были определены как приоритетные задачи. В результате возможности совершенствования методики преподавания биологии в общеобразовательной школе еще более расширятся.

Данная исследовательская работа в определенной степени служит при выполнении поставленных задач в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан, №187 от 6 апреля 2017 года «об утверждении

---

<sup>3</sup> <https://e-library.namdu.uz/>

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5712-сонли Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.

